



2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 46 (1645), 2026-yil 7-mart, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



ONALARI UYG‘OQ VATAN MUDOM MUZAFFAR

Ko‘ksaroy qarorgohida 6-mart kuni Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan bayram tadbiri bo‘lib o‘tdi. Unda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ishtirok etdi



Yangi O‘zbekiston ayollari — kuch, mehr va ilhom timsoli. Ushbu o‘xshatishlarni bir nuqtaga jamlasangiz, bahor qiyofasi paydo bo‘ladi. Zero, bahor yangilangan shiddatli kuchdir. U borliqqa, butun tabiatga hayot shavqini beradi. Bu faslda quyosh nuriday mehr taftidan inson qalbi charog‘on bo‘ladi. Turfa chechaklar, yashil kengliklar hayotsevarlik fanidan dars o‘tadi, ilhom bag‘ishlaydi. Yurtimizdagi xotin-qizlar ham ana shu bahoriy shijoat kabi yangi O‘zbekistonni bunyod etishda faol ishtirok etmoqda.

Ko‘ksaroyda bo‘lib o‘tgan tantanali tadbir avvalida Prezidentimiz butun O‘zbekiston ayol-qizlarini 8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni bilan samimiy muborakbod etdi.

“Inson hayotini, jamiyat taraqqiyotini xotin-qizlarsiz, ularning euzu fazilatlarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

Biz sizlarning timsolingizda Uchinchi Renessans bunyodkori bo‘lib maydonga chiqayotgan 22 millionlik yosh avlodni onalik mehri bilan tarbiyalab, voyaga yetkazgan buyuk bir kuchni ko‘ramiz.

Sizlar tadbirkor, olim, muallim, shifokor, muhandis, davlat va jamoat arbobi, bir so‘z bilan xonadonlarimiz farishtasi, oila va jamiyat tayanchi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz”, dedi davlatimiz rahbari.

Albatta, o‘tgan 10 yil davomidagi islohotlar sabab jamiyatimizda xotin-qizlar haqli ravishda o‘z so‘zi va o‘rniga ega bo‘lib bormoqda. Xususan, o‘tgan yillarda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta‘minlash, muammolarini hal qilish bo‘yicha mutlaqo

yangi tizim yaratildi. Ular o‘z iste‘dodini to‘la namoyon etib, orzu-intilishlariga erishishi uchun keng yo‘l ochildi. Birgina o‘tgan yilning o‘zida xotin-qizlar bandligini ta‘minlash va ularni tadbirkorlikka keng jalb etish maqsadida 23,5 trillion so‘mlik kredit yo‘naltirilgan. Natijada 425 mingdan ortiq xotin-qiz hayotida katta o‘zgarishlarga erishildi.

Ayol ishlashi, emin-erkin harakat qilishi uchun iqtisodiy imtiyozning o‘zi yetarli emas. Shu bois, mamlakatimizda nozik

xilqat egalariini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, huquqiy savodxonligini oshirib, gender tenglikni ta‘minlash borasida ulkan islohotlar amalga oshirildi.

Shu o‘rinda bir hayotiy misol keltirsak. Katta shaharlardagi bog‘chalarda ham navbat katta edi. Ko‘pgina ota-onalar bolasini bog‘chaga joylashtira olmay qiynalgani ham ayni haqiqat.

Yangi O‘zbekistonda maktabgacha ta‘lim tizimi tubdan isloh qilindi. Sohaga xususiy sektor kirib kelib, aholiga keng imtiyozlar

taqdim etildi. Natijada bugun eng olis qishloq va ovullarda ham maktabgacha ta‘lim muassasalari qurildi. Mobil bog‘chalar ishga tushirildi. Ana shu o‘zgarishning o‘ziyoq ayollarning uy-ro‘zg‘or va bola tarbiyasidan ortib ishlashi, o‘qib-o‘rganishiga zamin hozirladi. Ta‘bir joiz bo‘lsa, ular ta‘lim olishi, ishlashi, jamiyatning faol a‘zosi bo‘lishi uchun imtiyoz va imkoniyatlar paketi yaratildi.

Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING XALQARO XOTIN-QIZLAR KUNIGA BAG‘ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI NUTQI

Assalomu alaykum, muhtarama onaxonalar, qadrlı opa-singillar, dilbar qizlarim!

Sizlarni, butun O‘zbekiston ayollarini 8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.

Inson hayotini, jamiyat taraqqiyotini xotin-qizlarsiz, ularning euzu fazilatlarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

Biz sizlarning timsolingizda Uchinchi Renessans bunyodkori bo‘lib maydonga chiqayotgan 22 millionlik yosh avlodni onalik mehri bilan tarbiyalab, voyaga yetkazgan buyuk bir kuchni ko‘ramiz.

Sizlar tadbirkor, olim, muallim, shifokor, muhandis, davlat va jamoat arbobi, bir so‘z bilan xonadonlarimiz farishtasi, oila va jamiyat tayanchi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Aziz opa-singillar!

Biz yurtimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatini ta‘minlash, muammolarini hal qilish bo‘yicha mutlaqo yangi tizim yaratdik. Barcha qonun, farmon va qarorlarni qabul qilishda gender masalasi bo‘yicha huquqiy mexanizmlar joriy etildi.

Endi xotin-qizlarning huquq va manfaatlariga ta‘sir baholalanmay turib birorta qonun qabul qilinmaydi.

Yaratilgan keng imkoniyat va sharoitlar hisobiga 230 mingga yaqin tadbirkor ayollar sinfi shakllandi, mirishkor fermer ayollarimiz 12 ming nafarga yetdi, ilmfan rivojiga ulkan hissa qo‘shayotgan olimlarimiz 6 ming nafardan oshdi.

O‘tgan yili dunyo arenalarida shijoatli qizlarimiz 167 ta oltin, 193 ta kumush, 243 ta bronza medalni qo‘lga kiritgani tahsinga sazovordir.

Xotin-qizlarimiz hayotidagi ana shunday katta o‘zgarishlar dunyo hamjamiyati tomonidan e‘tirof etilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Parlamentlararo ittifoqning “Parlamentdagi ayollar” reytingida 92 pog‘ona yuqorilab, 36-o‘rinni egalladi; “Gender tenglik va boshqaruv” indeksida 103-o‘rindan 52-o‘ringa ko‘tarildi; Jahon bankining “Ayollar, biznes va qonun” hisobotida esa o‘z pozitsiyasini 43 pog‘onaga yaxshilab, 48-o‘ringa chiqdi.

Fursatdan foydalanib, turli sohalardagi mehnati, iste‘dodi va aql-zakovati bilan Yangi O‘zbekistonni barpo etishga munosib hissa qo‘shib kelayotgan ayollarimizga, xalqaro maydonlarda Vatanimizni dunyoga tarannum etayotgan qizlarimizga, ularning ota-onalari, ustoz va murabbiylariga samimiy minnatdorlik bildiraman.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari! Ayollarni ishl va daromadli qilish masalasi hamisha e‘tiborimiz markazida bo‘lib kelmoqda. O‘tgan yili xotin-qizlar bandligini ta‘minlash va ularni tadbirkorlikka jalb etish maqsadida 23,5 trillion so‘m kredit yo‘naltirdik. Buning hisobidan 425 mingdan ortiq opasingillarimiz tadbirkorlikka jalb qilindi.

Misol uchun, to‘qimachilik sohasida 300 nafar ayollarni band qilgan yangi-ariqlik Nargiza Bekmuratova o‘tgan yili ikkinchi fabrikasini ochib, yana 100 ta ish o‘rni yaratdi. Ushbu ishbilamon qizimiz 2025-yilda Anqara shahrida o‘tkazilgan xalqaro tanlovda “Xotin-qizlar uchun eng ko‘p ish o‘rni yaratgan tadbirkor ayol” nominatsiyasi g‘olibi bo‘ldi.

Men bunday serg‘ayrat qizlarimizni Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari deb

bilaman. Ularni har qancha qo‘llab-quvvatlashga tayyorman. Shu bois, bu yil 166 ming nafar xotin-qizlar zamonaviy kasb va tadbirkorlikka, yana 100 ming nafari IT sohasiga o‘qitiladi.

Shuningdek, opa-singillarimizga o‘z uyida tadbirkorlik qilishi uchun “Daromadli ayol” dasturini boshlaymiz. Bu orqali lider tadbirkorlar ko‘magida kasanachilik, hunarmandchilik, parrandachilik, asalarichilik va tomorqachilik yo‘nalishlarida 50 ming nafar ayolning bandligi ta‘minlanadi.

Bundan tashqari, “Hamroh” dasturi doirasida xotin-qizlarning 3 mingta loyihasiga jami 1 trillion so‘m ajratiladi.

Umuman, joriy yilda 1,5 million nafar ayolning daromadli qilish, shundan 400 ming nafarini biznesga jalb etish bo‘yicha katta marra olganmiz. Ushbu maqsadlar uchun 25 trillion so‘mdan ziyod resurs yo‘naltiriladi. Bosh vazir o‘rinbosarlari J.Qo‘chqorov, Z.Mahkamova, Kam-bag‘allikni qisqartirish va bandlik vaziri B.Zohidov, Markaziy bank raisi T.Ishmetov, viloyat hokimlari va ishlarga mas‘ul bo‘ladi.

Qadrlı yurtdoshlar! Bugun oliyog‘hda o‘qiyotgan qizlarimiz soni 904 mingdan oshib, jami talabalarining 54 foizini tashkil etmoqda. O‘tgan yili 60 nafar qizimiz dunyodagi eng nufuzli oliygohlarga o‘qishga kirgani albatta barchamizni quvontiradi. Stajyor-tadqiqotchilar va doktoranturada tahsil olayotganlarning 8,5 ming nafari, ya‘ni 61 foizini xotin-qizlar tashkil etayotgani ham e‘tiborlidir.

Davomi 2-betda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining QARORI

2026-YILGI NAVRO‘Z UMUMXALQ BAYRAMIGA TAYYORGARLIK KO‘RISH VA UNI O‘TKAZISH TO‘G‘RISIDA

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar tufayli inson qadri, uning huquq va manfaatlarini ta‘minlash, xalqimiz farovonligini oshirish, jamiyatda tinchlik, do‘stlik va hamjihatlik muhitini, ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlash yo‘lida ulkan qadamlar tashlanmoqda. Bularning barchasi qadimiy tarix va an‘analarga ega bo‘lgan sharqona yangi yil bayrami — Navro‘zi olamning insonparvarlik mohiyati, uning bag‘rikenglik, saxovat va mehr-oqibat kabi azaliy qadriyatlarini ahamiyatini yanada yuksaltirmoqda.

So‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan tom ma‘nodagi tarixiy o‘zgarishlarga mos holda, ma‘no-mazmuni tobora chuqurlashib borayotgan Navro‘z ayyomini barcha shahar va qishloqlarimizda, butun yurtimizda umumxalq sayli sifatida, yuksak tashkiliy saviyada va ko‘tarinki ruhda nishonlash maqsadida **qaror qilaman:**

1. 2026-yilgi Navro‘z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy qo‘mita (keyingi o‘rinlarda — Tashkiliy qo‘mita) tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tashkiliy qo‘mita (A.Aripov) bir hafta muddatda:

a) Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi, Madaniyat vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi va “Nuroniy” jamg‘armasining taklifiga ko‘ra Navro‘z umumxalq bayramining g‘oyaviy mazmunini

kuchaytirishga oid konseptni (keyingi o‘rinlarda — Konsept) tasdiqlasin;

b) Toshkent shahri, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar markazlari, barcha shahar va tumanlar, qishloq va ovullarda Navro‘z umumxalq bayramini munosib nishonlash bo‘yicha **“Navro‘zni ulug‘lash — insonni ulug‘lashdir!”** degan ezu g‘oyani o‘zida mujassam etgan tashkiliy-amaliy, madaniy-ma‘naviy hamda targ‘ibot tadbirlari dasturini tasdiqlasin va uning amalga oshirilishini ta‘minlasin.

3. Joylarda Navro‘z umumxalq bayramiga bag‘ishlangan barcha tadbirlarni Konseptda bayon etiladigan asosiy yo‘nalish va tavsiyalarga mos holda yuksak darajada tashkil etish, ularda yurtdoshlarimizning faol ishtirokini ta‘minlash maqsadida quyidagi masalalarga alohida e‘tibor qaratilsin:

a) bayram tadbirlarini borliqning uyg‘onishi, inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlik, ona zaminga mehr va e‘tiborni ifoda etadigan, yurtdoshlarimizni tinch va osuda hayotimizni qadrlab, suv va yer resurslaridan oqilona foydalanib, shukronalik tuyg‘usi bilan yashashga chorlaydigan ta‘sirchan mazmun va shaklda o‘tkazish;

b) mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub demokratik islohotlar, xalqimizning kundalik hayoti, ongi va dunyoqarashida yuz berayotgan ijobiy o‘zgarishlar, o‘zaro birlik va hamjihatlik fazilatlarini Navro‘z kunlarida ayniqsa yaqqol namoyon bo‘lishini targ‘ib etish;

d) bu yilgi Navro‘z muborak Ramazon hayiti bayrami bilan hamohang tarzda

nishonlanishi uning insonparvarlik tamoyillarini yanada kuchaytirishini inobatga olib, keksa avlod vakillarini, xususan, Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va mehnat fronti faxriylarini har tomonlama e‘zozlash, “Mehribonlik”, “Saxovat” va “Muruvvat” uylarida yashayotgan shaxslar, ijtimoiy himoya daftarlariga kiritilgan va ko‘makka muhtoj insonlarning holidan xabar olish, ular uchun bayram dasturxonlarini tashkil etish hamda turli xayriya tadbirlarini mahalla faollari, yoshlar va xotin-qizlar vakillari ishtirokida uyushqoqlik bilan o‘tkazish;

e) “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida belgilangan tadbirlarni amalga oshirish, bayram arafasida barcha hududlarda, ko‘cha va maydonlar, mahalla, tuman va shaharlarda obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish tadbirlarini o‘tkazish, **“Men ham ko‘chat ekaman”** aksiyalarini, umumxalq hasharlarini tashkil etish;

f) jamiyatimizda hukm surayotgan millatlararo do‘stlik va totuvlik muhitini mustahkamlash maqsadida yurtimizda istiqomat qilayotgan turli millat va elatlar vakillarining milliy urf-odatlarini, an‘ana va qadriyatlarini keng namoyish qilish;

g) bayram tadbirlari davomida hunarmandchilik ko‘rgazmalari, milliy sport turlari bo‘yicha musobaqalar o‘tkazish, kitob ko‘rgazmalari, arzonlashtirilgan qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari yarmakalari, ko‘chma savdo do‘konlarini tashkil etish, ko‘klam taomlarini tayyorlash hamda bu borada ko‘rgazmali savdo va tanlovlarini uyushtirish;

Davomi 2-betda



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING XALQARO XOTIN-QIZLAR KUNIGA BAG‘ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI NUTQI

Boshlanishi 1-betda

Bugungi anjumanimizda qatnashayotgan qizlarimiz — Kegeyli tumanidan Indira Satniyazova, buxorolik Vazira Fayzullayeva, navoiylik Mashhura Quدراتovanning xalqaro fan olimpiadalarida erishgan yutuqlarini hamda bir qator xalqaro startap tanlovlari g‘olibi bo‘lgan buyaydalik Dilafruz Jo‘raboyeva nufuzli “Microsoft” kompaniyasining O‘zbekistondagi elchisi sifatida e’tirof etilganini ham alohida ta’kidlash lozim.

Yangi o‘quv yilidan boshlab ehtiyojmand oilalardagi ayollarimiz uchun davlat granti kvotasini 2 karra oshirib, 4 mingga yetkazamiz.

TOP-300 talikdagi oliyog‘hlar bilan qo‘shma ta’lim asosida magistratura bosqichida ta’lim olayotgan talaba qizlarning kontrakt pullari ham davlat tomonidan to‘lab beriladi.

Endi har yili xotin-qizlarning innovatsion g‘oyalari qo‘llab-quvvatlash uchun kamida 10 ta yo‘nalish bo‘yicha startap tanlovlari o‘tkaziladi. Bunda har bir yo‘nalish g‘olibi Innovatsiya jamg‘armasidan 500 million so‘mgacha grant beriladi. Maktablarning 11-sinfni bitirib, davlat texnikumlariga kirgan qizlarni kasbga o‘qitish to‘liq davlat granti asosida bo‘ladi.

O‘ylaymanki, bu tashabbuslar xotin-qizlarimiz uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochib beradi.

Aziz do‘stlar!

Ayollar va bolalarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikka qarshi murosasiz muhit yaratish — biz uchun strategik vazifa. Shu haftada yana bir muhim Farmonni imzoladim. Endi

xotin-qizlar va bolalarga nisbatan har qanday zo‘ravonlik va tazyiq holatlariga qarshi qat‘iy tizim asosida kurash olib boramiz.

Yana bir muhim masalaga to‘xtalmoqchiman. Bugungi kunda jazoni ijo etish muassasalarida 2589 nafar ayol jazo muddatini o‘tamoqda.

Turli sabablarga ko‘ra, bilib-bilmay jinoyatga qo‘l urgan ushbu ayollar ham shu yurtning fuqarolari. Ularni ijtimoiy hayotga qaytarish, jamiyatning to‘laqonli a‘zosisga aylantirish to‘g‘risida ham jiddiy o‘ylashimiz kerak.

Jazoni o‘tayotgan ayollarning 1239 nafari o‘rta ma‘lumotli, na kasbi, na hunari bor. Ularning 443 nafari oliy ta‘lim muassasalarida o‘qish istagini bildirgan. Shu bois, bunday xotin-qizlar bilan manzilli ishlash bo‘yicha “Yangi hayot” dasturini boshlaymiz.

Ichki ishlar vazirligi Kasbiy ta‘lim agentligi va Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi bilan jazoni o‘tayotgan ayollarni 3-6 oylik kasb dasturlari bo‘yicha o‘qitib, sertifikat beradi. Shuningdek, mahkumalarga o‘sha yerning o‘zida imtihon topshirib, oliyog‘hlariga kirish va masofaviy o‘qish imkoniyatini yaratib beramiz.

Kontrakt bo‘yicha o‘qishga qabul qilinganlarga jazoni o‘tab, ishga joylashganidan keyin qaytarish sharti bilan foizsiz ssuda ajratiladi.

Muhtaram onaxonlar, qadrlı opa-singillar!

Bugun Yangi O‘zbekiston o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga dadil kirib bormoqda. Biz o‘z oldimizga, avvalo, inson baxti, inson qadri uchun xizmat qiladigan ulkan maqsadlar qo‘yganmiz. Chunki **inson baxti — oiladan boshlanadi**, oila esa ayol bilan mustahkam. Kelajak

avlodlar ana shu muqaddas makonda kamolga yetadi. Hech shubhasiz, bu borada qizlarimizning ma‘naviy tarbiyasi hal qiluvchi o‘rin tutadi.

Mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas fazilatlar qizlarimiz qalbiga buvjonlarning nasihat va o‘gitlari bilan kiradi. Bunday oilada tarbiya olgan qizlarimiz yurish-turishi, odob-axloqi va hayotga munosabati bilan tengdoshlariga namuna bo‘lib kelgan. Bugungi sharoitda ana shu tarbiya maktabiga ehtiyoj har qachongidan ham dolzarb bo‘lib turibdi.

Shu o‘rinda men o‘ta og‘ir sinov damlarida ham qaddi bukilmagani, butun umrini oilasiga, farzandiga bag‘ishlagan barcha onaxonlarimizga murojaat qilmoqchiman.

Biz 2026-yilni **“Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili”**, deb e‘lon qilganimiz bejiz emas. Dunyodagi vaziyat qanday tahlikali bo‘lib borayotganini barchamiz ko‘rib turibmiz.

Bunday murakkab davrda yurtimizdagi tinchlik va osoyishtalik Alloh taolo bergan ulug‘ ne‘mat ekanini yanada chuqur his etmoqdamiz. Uni asrash esa har birimizning muqaddas burchimizdir.

Mana shunday sharoitda duogo‘y buvjonlarimiz, mo‘tabar onaxonlarimiz oilalarda bu ne‘matning qadriga yetish, uni asrab-avaylash va farzandlar, nabiralarga shukronalik tuyg‘usini singdirishda namuna bo‘ladilar deb ishonaman.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Inson uchun o‘z mehnatining mahsulini ko‘rish, e‘tirof va e‘tiborga sazovor bo‘lish katta baxt.

Ushbu qutlug‘ bayram arafasida yurtimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shib

kelayotgan ayollarimizdan bir guruhini davlatimizning yuksak unvon, orden va medallari bilan taqdirlash bo‘yicha Farmonni imzoladim. Shuningdek, an‘anaga ko‘ra, o‘qish va ijodda, ilm-fan, sport va jamoat ishlarida faol bo‘lib kelayotgan qizlarimizdan yana 28 nafari Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo‘ldi.

Butun xalqimiz nomidan mukofot sohibalarini yana bir bor tabriklayman.

Muhtaram opa-singillar!

So‘nggi yillarda siz, azizlar bilan, xalqimiz bilan birga ilgari tariximizda bo‘lmagan buyuk ishlarni amalga oshirdik.

Mashaqqatli, halol mehnatimiz bilan butun dunyoning e’tirofi va hurmatiga sazovor bo‘lmoqdamiz. Eng muhimi, har bir soha va tarmoqda Yangi O‘zbekiston maktabi shakllanmoqda.

Biz uchun bugungi o‘ta og‘ir va murakkab zamonda oldimizga qo‘ygan ulkan marralarni egallashda yanada birlashib, hamjihat bo‘lib mehnat qilish har qachongidan ham muhim vazifadir.

Yangi O‘zbekistonni ayollari hayotdan rozi bo‘lib, baxtli-saodatli yashaydigan mamlakatga aylantirish — mening eng katta niyatim.

Ishonchim komil, sizdek fidoyi, shijoatli, mehnatkash ayollarimiz, butun xalqimiz bilan birga ezigu maqsadlarimizga, albatta, erishamiz!

So‘zimizning yakunida butun O‘zbekiston xotin-qizlarini kirib kelayotgan nafosat ayyomi, go‘zallik bayrami bilan yana bir bor chin qalbmizdan tabriklayman.

Barchangizga sihat-salomatlik, xonadonlaringizga tinchlik-omonlik, oilaviy baxt-saodat yor bo‘lishini tilayman.

Bayramingiz muborak bo‘lsin!

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Q A R O R I

2026-YILGI NAVRO‘Z UMUMXALQ BAYRAMIGA TAYYORGARLIK KO‘RISH VA UNI O‘TKAZISH TO‘G‘RISIDA

Boshlanishi 1-betda

h) barcha shahar va qishloqlarda o‘tkaziladigan bayram tantanalarida, ommaviy axborot vositalarida Navro‘z bayramining tarixi, har bir hududda uni nishonlash bilan bog‘liq udum va an‘analarni keng yoritish;

i) Toshkent shahridagi “Yangi O‘zbekiston” majmuasida alohida dastur asosida xalq sayillarini tashkil etish.

4. Madaniyat vazirligi (O.Nazarbekov) Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi (O.Xasanov), O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi (S.Saidov) bilan birgalikda **bir hafta muddatda** Konseptga muvofiq Toshkent shahrida Navro‘z bayramiga bag‘ishlab o‘tkaziladigan teatrlashtirilgan asosiy konsert tomoshasining dasturini ishlab chiqsin.

5. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari:

a) **bir hafta muddatda** Navro‘z umumxalq sayillarini o‘tkazish bo‘yicha quyidagilarni nazarda tutadigan hududiy chora-tadbirlar dasturlarini ishlab chiqsin va tasdiqlas:

i) umumxalq sayillari uyushtiriladigan asosiy maydonlar, ko‘cha va xiyobonlarni bayramona bezatish;

ii) sayil va tomoshalarni mahalliy tajribali ssenaristlar va rejissyorlar, kompozitor va bastakorlar, baletmeysterlar, sahna rassomlari, iste‘dodli yosh ijrochilar, folklor

san‘ati vakillari bilan birgalikda yuqori badiiy saviyada tayyorlash choralari ko‘rish;

iii) bayram tadbirlari doirasida har bir hududga xos bo‘lgan xalq o‘yinlari, tomoshalar, ko‘rgazmalar o‘tkazib, bahor taomlari sotiladigan ochiq oshxonalar tashkil qilish;

b) bayram dasturlarini va ommaviy tomoshalarni tayyorlashda, ko‘chalar, maydon va xiyobonlarni bezatishda malakali mutaxassislardan iborat ijodiy guruhlarni keng jalb etsin;

d) barcha tadbirlar jamoat xavfsizligi talablariga qat‘iy rioya qilingan holda o‘tkazilishini ta‘minlasin.

6. Belgilab qo‘yilsinki, o‘tkaziladigan bayram tadbirlarining xarajatlari:

a) **Toshkent shahrida** — respublika budjeti va Toshkent shahar mahalliy budjeti mablag‘lari hisobidan teng ulushlarda;

b) **Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda** — tegishli mahalliy budjetlar hamda homiylik xayriyalari hisobidan qoplanadi.

7. O‘zbekiston Milliy axborot agentligi, O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, “Dunyo” axborot agentligi va boshqa ommaviy axborot vositalariga Navro‘z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni atroflicha yoritib borish tavsiya etilsin.

8. Ushbu qaromning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N.Aripov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Toshkent shahri,
2026-yil 6-mart

SH. MIRZIYOYEV



ONALARI UYG‘OQ VATAN MUDOM MUZAFFAR

Boshlanishi 1-betda

Albatta, bunday yangilanishlar besamar ketgani yo‘q. Xususan, 230 mingga yaqin ayoldan iborat tadbirkorlar sinfi shakllandi. Mirishkor fermer ayol-qizlar soni 12 mingga yetdi. Muhimi, ilm-fan rivojiga ulkan hissa qo‘shayotgan olimlarimiz 6000 dan oshdi. Xotin-qizlarning sport jabhasidagi natijalari ham quvonarli. Jumladan, ular o‘tgan yili dunyo arenalarda 167 oltin, 193 kumush, 243 bronza medalni qo‘lga kiritgan.

Xotin-qizlar hayotidagi bunday ulkan yangilanishlar xalqaro maydonda ham e’tirof etilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Parlamentlararo Ittifoqning “Parlamentdagi ayollar” reytingida 92 pog‘ona yuqorilab, 36-o‘rinni egalladi, “Gender tenglik va boshqaruv” indeksida 103-o‘rindan 52-o‘ringa ko‘tarildi, Jahon bankining “Ayollar, biznes va qonun” hisobotida esa o‘z pozitsiyasini 43 pog‘ona yaxshilab, 48-o‘ringa chiqdi. Shu raqamlarning o‘ziyoq yurtimiz xotin-qizlari jamiyatning faol a‘zosi sifatida vatanga naf keltirish ruhida yashayotganini ko‘rsatadi.

Qaldirg‘och bahor darakchisi. U kelgach, qattiq sovuq bo‘lmaydi. Shu kunlarda yog‘ayotgan baraka yomg‘iri, kutilayotgan salqin havo qaldirg‘ochning kelishidan darak. Har yili mart oyining dastlabki o‘n kunligida havo shunday o‘zgaradi. Buni donishmand xalqimiz “qaldirg‘och shamoli” deb ataydi.

Bahorning ilk kunlarida xotin-qizlar bayramini ham nishonlaymiz. Mo‘tabar onalarimiz, mehribon opa-singillarimiz, jonday aziz yorimiz va qizlarimiz bizga doim bahoriy kayfiyat beradi. Ular insonga eng yaqin do‘st maqomini olgan qaldirg‘och kabi qalbimizga quvonch olib kiradi. Tabiatning mitti mo‘jizasi bo‘lgan bu qushni xalqimiz ezigulik, yaxshi kunlar darakchisi deb biladi.



Uning kelishi arafasida nishonlangan katta tantana ham quvonchli xabarlariga boy bo‘ldi. Xususan, mamlakatimiz yetakchisi bu yil 166 ming xotin-qiz zamonaviy kasb va tadbirkorlikka, yana 100 ming nafari AT sohasi bo‘yicha o‘qitilishini ma‘lum qildi. Shuningdek, opa-singillarimizning o‘z uyida tadbirkorlik qilishi uchun “Daromadli ayol” dasturiga start beriladigan bo‘ldi. Bu orqali lider tadbirkorlar ko‘magida kasanachilik, hunarmandchilik, parrandachilik, asalarichilik va tomorqachilik yo‘nalishlarida 50 ming ayolning bandligi ta‘minlanadi.

Qolaversa, “Hamroh” dasturi doirasida xotin-qizlar taqdim etgan 3000 ta loyihaga 1 trillion so‘m ajratiladi. Umuman, joriy yilda 1,5 million ayol-qizni daromadli qilishdek

katta marra olingan. Shulardan 400 mingi biznesga jalb etiladi.

Aslida, ayollarimiz azaldan jamiyatda hal qiluvchi o‘ringa ega bo‘lgan. Masalan, Hakimbekday alpni yori Barchinoy va singlisi Qaldirg‘och qahramonlikka chorlagan edi. Buni “Alpomish” dostonini o‘qiganlar yaxshi biladi. Ayniqsa, Qaldirg‘och Alpomishga o‘z fikrini ochiq, hatto zarur paytda keskin aytadi. Ana shu so‘z sabab Alpomish Barchinoyini g‘anim qo‘lidan ozod etish uchun yo‘lga chiqadi. Ming yildan ortiq tarixga ega eposlarimizda xotin-qizlar ana shunday zukko, mard, o‘z so‘zi va o‘rniga ega shaxs qilib tasvirlangan.

Yangi O‘zbekistondagi islohotlar muayyan muddat ana shu tarixiy haqiqatdan

uzilib qolgan hayotiy haqiqatlarni yana o‘zaniga qaytardi. Bugun Prezidentimiz yaratib berayotgan imkoniyatlar tufayli Alpomish va Qaldirg‘ochday o‘g‘il-qizlarni tarbiyalayotgan ayollar safi kengayib bormoqda. Shu o‘rinda yana bir hayotiy haqiqatni aytish kerak. Milliy o‘zlikka qaytayotgan xalqimizning yangi taraqqiyot yo‘lida bir zum ham to‘xtab qolishga haqqi

11-sinfni bitirib, davlat texnikumlariga o‘qishga kirgan qizlarni kasbga o‘qitish to‘liq davlat granti asosida amalga oshiriladi. Bu maktabni tamomlab, ta‘limni oliyog‘hlarida davom etira olmagan yoshlar uchun katta imkoniyatdir.

Xalqimizning bolajon deb ta‘riflanishida chuqur hayotiy haqiqat bor. Chunki ko‘p millatli xalqimiz bolaning begonasi yo‘q



degan qarash bilan yashaydi. Ammo jamiyatlar doim qonunlar bilan tartibga solib turilishi zarur. Shunda qadriyatlariga qat‘iy amal qilish, insoniy fazilatlarni ulug‘lashdek qarashlar shakllanib boradi.

Tadbirida ayollar va bolalarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikka qarshi kurashish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri ekanini ta‘kidladi. Prezidentimiz yaqinda xotin-qizlar va bolalarni har qanday zo‘ravonlikdan himoya qilishga qaratilgan yangi farmonni imzolagan edi. Unga ko‘ra, endi xotin-qizlar va bolalarga nisbatan har qanday zo‘ravonlik, tazyiq holatiga qarshi qat‘iy tizim asosida kurashiladi.

Yana bir hayotbaxsh tashabbus — “Yangi hayot” dasturi amalga oshirilishi belgilandi.

Ushbu dasturga ko‘ra, jazoni ijo etish muassasalarida jazo muddatini o‘tayotgan ayollar jamiyatga integratsiya qilinadi. Xususan, mahkumalar 3-6 oylik kasbga o‘qitish dasturlari orqali hunar egallaydi. Hatto oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga kirish va masofaviy ta‘lim olish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

“Biz o‘z oldimizga, avvalo, inson baxti, inson qadri uchun xizmat qiladigan ulkan maqsadlar qo‘yganmiz. Chunki inson baxti oiladan boshlanadi, oila esa ayol bilan mustahkam. Hech shubhasiz, bu borada qizlarimizning ma‘naviy tarbiyasi hal qiluvchi o‘rin tutadi”, dedi davlatimiz rahbari.

Yangi O‘zbekistondagi islohotlar inson qadriini ulug‘lashga qaratilgan. Uning qadri esa ezigu orzu-niyatlar ijobatiga bog‘liq. Bugun murakkab zamonda yashayapmiz. Bunday paytda oldimizga qo‘yilgan ulkan marralarga erishishda yanada birlashib, hamjihat bo‘lib mehnat qilishimiz zarur. 2026-yilning **Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili** deb e‘lon qilingani ham bejiz emas.

Hozirgi murakkab davrda yurtimizdagi tinchlik va osoyishtalik qanchalik ulug‘ ne‘mat ekanini yanada chuqur his etaypmiz. Uni asrash esa har birimizning muqaddas burchimizdir. Ayni paytda barqaror taraqqiy etishimiz hamjihatlikda olg‘a intilishimizga bog‘liq. Bunda, ayniqsa, duogo‘y buvjonlarimiz, mo‘tabar onaxonlarimizning o‘mi beqiyos. Ular bu ulug‘ ne‘mat qadriga yetish, uni asrab-avaylash va farzandlar, nabiralarga shukronalik tuyg‘usini singdirishda namuna bo‘lishiga ishonch bildirildi.

“Yangi O‘zbekistonni ayollari hayotdan rozi bo‘lib, baxtli-saodatli yashaydigan mamlakatga aylantirish — mening eng katta niyatim. Ishonchim komil, sizdek fidoyi, shijoatli, mehnatkash ayollarimiz, butun xalqimiz bilan birga ezigu maqsadlarimizga, albatta, erishamiz!”, dedi Prezidentimiz.

Tadbirdagi yana bir quvonchli holat: mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shayotgan bir guruh ayollarga davlatimizning yuksak unvon, orden va medallari, shuningdek, ilm-fan, ta‘lim, madaniyat va jamoat ishlarida faol 28 iqtidorli qizga Zulfiya nomidagi davlat mukofoti tantanali topshirildi.

Bundan tashqari, “O‘zbekiston” xalqaro anjumanlar saroyida konsert dasturi taqdim etildi.

Bunday yuksak e‘tirof va ehtiromdan haqli ravishda masrur bo‘lgan munis onajonlarimiz yuz-ko‘zida erangni kuzga ishonch balqiydi. Qaldirg‘ochday saf tortgan singillarimiz esa “Onalari uyg‘oq Vatanni mag‘lub etib bo‘lmagay”, deya baralla she‘r o‘qiydi.

Boboravshan G‘OZIDDINOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Evodiya — asalari daraxti” yangi tur bo‘lib, undan bugungacha mavjud shu turdagi o‘simliklardan bir necha barobar ko‘p shifobaxsh asal yig‘ib olish mumkin. Odatda ekiladigan lipa daraxtidan ham evodiyadan ko‘ra o‘n barobar kam asal olinadi.



Yashil makon

YANGI O‘ZBEKISTON

yuz.uz_news



yuz.uz_news

Tanasi ham shifobaxsh

Anvar akaning asli kasbi dorishunos bo‘lgani bois, o‘simliklarni ayni shifobaxsh xususiyatlariga ko‘ra o‘rganadi. Bugunga qadar 6-7 xil o‘simlikni yurtimiz sharoitiga moslashtirishga erishdi. Ularning ko‘pi o‘rmon xo‘jaligi yerlarida yetishtiriladi. Shifobaxsh o‘simliklardan dori tayyorlaydi. Ularning asosiy tarkibida asal mahsuloti bo‘lgani sababli asalarichilikni ham yo‘lga qo‘ygan. Asalari oilalarini boqish barobarida ularga ozuqa bo‘ladigan o‘simliklarni o‘rganish ishlarini olib boradi. Yangi navlarni tajriba maydonlarida sinab ko‘radi. “Asalari daraxti” uning ana shu izlanishlari mahsulati.

Aslida, asalni sevib iste‘mol qilmaydigan kishi topilmasa kerak. Tabiiy shifobaxsh mahsulotni doimiy iste‘mol qilish tanaga quvvat berib, ko‘plab dardlarga shifo bo‘lishi haqida kattalardan doim eshitamiz. Ayniqsa, bahor mavsumida kuzatiladigan holsizlik, lanjlikda darhol asal yalab yuborishni tavsiya qilishadi. Bu bejiz emas. Asal xalq tabobatida ham, zamonaviy tibbiyotda ham keng qo‘llaniladigan shifobaxsh mahsulot sanaladi.

Manbalarda yozilishicha, asal tashuvchilar sayyoramizda ibtidoiy odamlardan ancha yillar avval paydo bo‘lgan. Odamdor aqlini taniganidan buyon asalni arilar in qurgan daraxt kovaklaridan olgan. Demak, asalarichilik ham ancha qadimiy soha. Eng qadimgi manbalarda turli kasalliklarni asal bilan davolash haqida qaydlar uchraydi. Hatto qadimda uni “uzoq umr ko‘rish malhami”, “hayot sharbat” deb atashgan. Tibbiyot ilmining otasi, buyuk hakim Abu Ali Ibn Sino asalning ko‘plab xususiyatlarini keltirib, turli kasalliklarga davo ekani haqida yozadi. Asalari mahsulotlaridan Ibn Sino 500, Abu Rayhon Beruniy 300 turdan ortiq dori-darmon tayyorlagani haqida ma‘lumotlar uchraydi.

Zamonaviy tibbiyotda asalning qiymati baland. Ya‘ni bu mahsulotning foydaga boyligi, shifo ekani ayon. Ammo biz iste‘mol qiladigan o‘zgina miqdordagi asalni to‘plash uchun qancha asalari oilasi mehnat qilishi, o‘nlab, yuzlab gulga qo‘nishini ko‘pchilik tasavvur qila olmaydi. Ma‘lumotlarga ko‘ra, asalari bir kilogramm asal to‘plash uchun uyasidan 120-150 ming marta uchib chiqishi, minglab chaqirim masofani bosib o‘tishi kerak. Ular asal to‘plashi uchun ko‘proq ozuqa manbasi, ya‘ni o‘simlik gullari kerak.

“Asalari daraxti” ayni yoz oylarida asalari uchun kerakli ozuqani bera oladi. Ahamiyatli, bu daraxtning o‘zi ham shifobaxsh xususiyatga ega. Gulidan tashqari tanasi va barglaridan davolash maqsadlarida foydalanish mumkinligi yozilgan. Daraxt o‘zida yuqori miqdorda efir moylari va biologik faol moddalar saqlagan bois, tibbiyotda turli kasalliklarga malham sifatida qo‘llaniladi.

— “Evodiya” daraxtidan, bir tomondan, manzarali o‘simlik sifatida yurtimizda yashil makonlarni yaratishda, boshqa tomondan, asal olish, dorivor o‘simliklar tayyorlashda keng foydalanish mumkin, — deydi Anvar Ibragimov. — Ayni paytda “asalari daraxti”ning dorivor xususiyatlarini o‘rganish ustida ishlayapmiz. Farmatsevtika agentligi bilan asal mahsulotlaridan dori-darmon tayyorlash bo‘yicha ishlarimiz davom etyapti. Qolaversa, o‘tgan yili davlatimiz rahbari Yevropa mamlakatlariga safarlari davomida Sloveniyadagi kompaniyalar bilan hamkorlikda yurtimizda asalari mahsulotlaridan dori ishlab chiqarish bo‘yicha kelishuvlar tuzilgan. Shu bois, hozirgi vaqtda korxonamiz tomonidan Sloveniya va Ozarbayjondagi soha mutaxassislari bilan ushbu yo‘nalishda muzokaralar olib borilmoqda.

Shunday qilib, joriy bahor mavsumida yurtimizda ilk bor yangi tur — “asalari daraxti” ko‘chatlarini ekish boshlanadi. Yoz oylarida ularning ilk gullarini ko‘rishimiz hech gap emas. Ta‘riflanganidek, daraxt gullari juda go‘zal va xushbo‘y, nafaqat asalari oilalari uchun shira manbai, balki odamlarga estetik zavq ulashadigan manzarali o‘simlik. U atrof-muhit musaffoligini ta‘minlovchi daraxt sifatida ham keng ommlalashishi shubhasiz.

Iroda TOSHMATOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Erta bahordan yerga nihol qadab, turli o‘simlik ko‘chatlarini ekish, daraxtlarni oqlash xalqimizga xos an‘analardan biri. Azaldan davom etib kelayotgan bu harakatlar bugun xalqimiz orasida umummilliy tadbirga aylandi. Ko‘klam kelishi bilan yurtimizda an‘anaviy “Yashil makon” umummilliy loyihasi start oladi. Yilda ikki marotaba ommaviy tarzda o‘simlik va daraxt ko‘chatlari ekilib, yashil hududlar va bog‘lar barpo etilmoqda.

Loyihaning ahamiyati faqat ko‘chat ekishdangina iborat emas. Jarayonda o‘simliklarning tur va navlari hududlar iqlimi, tabiati va boshqa qator xususiyatlari asosida mutaxassislar tomonidan tavsiya etiladi. Olimlarimiz tomonidan o‘rganilib, tajribalardan so‘ng dala maydonlari va shahar ko‘chalariga ekilayotgan turli nafaqat manzarali, balki shifobaxsh xususiyatga ega, ekologik jihatdan bir necha barobar ko‘proq foydali. Ularning orasida har yili yangi navlarni ham uchratish mumkin. Keyingi yillarda shunday o‘simliklarga tez-tez ko‘zimiz tushayotgani, ularning nomlari bilan qiziqib qolayotganimiz boisi shunda.

Joriy yil ko‘chat ekish mavsumida ularning orasiga yana bir yangi tur qo‘shiladi. Janubiy Koreya va Xitoyda “Evodiya” nomi bilan mashhur daraxt turi uzoq yillik tajribaga ega dorishunos Anvar Ibragimov tomonidan yurtimiz iqlim sharoitiga moslashtirilib, “in-vitro” usulida ko‘chatlari tayyorlandi. 2026-yilning ilk oylarida esa O‘zbekiston amaliyotida yangi ushbu nav “Asalari daraxti” nomi bilan davlat reyestriga kiritilib, barcha viloyat hududlarida ekish mumkin degan xulosa berildi.

Daraxt nomi uning xususiyatidan kelib chiqqan. Aytishlaricha, xushbo‘y iforga ega, manzarali ko‘rinishidan tashqari gullarida juda ko‘p nektar-shira to‘plashi bilan ajralib turadi. Manbalarda o‘simlik gullagan vaqtda yutufidan asalari arimaydi va bitta voyaga yetgan daraxtdan 60 kilogrammdan 90 kilogrammgacha asal olish mumkinligi yozilgan. Bir gektar maydonda esa bu 6-8 tonnagacha boradi. Anvar aka asalgaga boy daraxt turi haqida gapirar ekan, tafsilotlari bizni yanada ko‘proq qiziqitirib boshladi.

O‘zbekiston amaliyotida hozircha bunga o‘xshash boshqa daraxt turi uchramaydi, — deydi Toshkent viloyati Zangioti tumanidagi “Ibrohim Rahmat” xususiy korxonasi rahbari, Sog‘liqni saqlash a‘lochisi, dorishunos Anvar Ibragimov. — To‘g‘ri, tajribada safora, qashqarbeda, indol, fatseliya, kashtan kabi nektar-shira beradigan o‘simlik va daraxtlarni o‘stirishga katta e‘tibor qaratilyapti. Ammo “Evodiya —



asalari daraxti” yangi tur bo‘lib, undan bugungacha mavjud shu turdagi o‘simliklardan bir necha barobar ko‘p shifobaxsh asal yig‘ib olish mumkin. Odatda ekiladigan lipa daraxtidan ham evodiyadan ko‘ra o‘n barobar kam asal olinadi. Shu bois, yangi nav asalari uchun ozuqabop o‘simlik sifatida juda foydali.

Gap shundaki, asalari oilalarini ko‘paytirish bir masala bo‘lsa, ularni boqish ikkinchi masala. Buning uchun yurtimizda yetarli ozuqa bazasini yaratish kerak. Odatda asalarichilarimiz paxta dalarali, o‘rmon xo‘jaliklari, umuman, tabiatdan foydalanib asal yig‘ishtirib oladi. Ammo dunyoda nektar beradigan mingga yaqin o‘simlik mavjud. Asalari yig‘adigan 400 kilogramm nektar qayta ishlanish davomida 100 kilogramm asalgaga aylandi. O‘rganishlarim davomida nektari o‘simliklarning ko‘pini hududimiz iqlim sharoitiga moslashtirish mumkinligini ko‘rdim. Joylarda bu o‘simliklarni o‘stirib, ko‘paytirish kerak.

Bu boradagi o‘rganishlarim 2020-yildan boshlandi. Korxonamizda asalari boqilgani, qolaversa, hukumatning tegishli qarorlari bilan mamlakatimiz bo‘ylab asalarichilikni rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligini oshirishda ularni asalari bilan changlatish amaliyotini keng joriy etish,



asalari oilalari sonini keskin oshirish, zarur ozuqa bazasini yaratish, nektar-shira beradigan o‘simliklar va daraxt turlarini ekip o‘stirish choralarini ko‘rib borish vazifalari belgilangani xorijiy yangi navlarni o‘rganib, o‘zimizda sinab ko‘rishimizga turki berdi. Chunki bu masalaga tobora ko‘proq e‘tibor qaratilib, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida ham aniq vazifalar belgilangan.

2020-yilda Janubiy Koreya va Xitoyning ayrim viloyatlarida ekiladigan “Evodiya” daraxti urug‘larini olib keldim. Bir tomondan pandemiya, boshqa tomondan o‘simlik urug‘larining qimmatligi va olib kelish muammolari sabab jarayon oson bo‘lmadi. Korxonamizning ilmiy dala tajriba maydoniga urug‘larni qadab, o‘zimizning sharoitida o‘stirdik va ko‘chat uni chiqdi. So‘ng bir yillik ko‘chatdan namuna olib, shartnoma asosida “in-vitro” laboratoriyasida ko‘chat tayyorladik. Laboratoriyadan chiqqach, ko‘chatlarni birinchi yili issiqxonaga, keyin ochiq maydonga ekdik. 2024-yil iyun oyining ikkinchi yarmidan boshlab esa daraxt gulga kirdi va 2025-yilda yanada ko‘proq gulladi.

Ko‘chatlarni ochiq maydonlarda ekish uchun yurtimizning turli viloyatlaridagi mutaxassislarga tarqatdik. Tajribalardan so‘ng ushbu yangi daraxt turini barcha hududlarimizda o‘stirish mumkinligiga amin bo‘ldik. Joriy yil boshida Qishloq xo‘jaligi vazirligining nav-sinov markazi xulosalarini asosida yangi tur “Asalari daraxti” nomi bilan davlat reyestriga kiritildi. Bu “Evodiya” daraxtining ingliz tilidan

tarjima qilingan nomi. Nemislar uni “xushbo‘y olmos” deb ham ataydi.

“Evodiya” daraxti 4-5 yilda gulga kiradi. Ayni paytda esa ochiq maydonlarda ekish mumkin bo‘lgan, 3 yillik ikki mingdan ortiq ko‘chat mavjud. Ularni yurtimizning barcha hududlarida ekish mumkin.

Suvsizlikka chidamli o‘simlik

O‘simliklarning eng katta xususiyati, albatta, o‘zidan ko‘p miqdorda kislorod chiqarishi bilan bog‘liq. Bugun atmosfera havosi tobora ifloslanib borayotgan sharoitda odamlar nafaqat tabiatni asrab qolish, balki uni qayta tiklab, yashil hududlarni ko‘paytirishga intilayotgani boisi shunda. Olimlar esa bu o‘simliklarning nafaqat ekologik, balki boshqa jihatlardan ham foydali bo‘lishiga e‘tibor qaratmoqda.

Masalan, asalari uchun yil davomida ozuqa bazasini yaratishni olaylik. Bu jihatga yurtimizda alohida e‘tibor qaratiladi. Mutaxassislar o‘simliklarning gullash davriga qarab, oyma-oy o‘stirish bo‘yicha tavsiyalar beradi. Mart oyidan yurtimizda mevali daraxtlar gullay boshlaydi, aprelda kelganda esparset o‘simligi gulga kirib, asalari uchun ozuqa oladi. Undan keyin lipa daraxti gullaridan nektar-shira yig‘ish mumkin. Endi bu ketma-ketlikni “asalari daraxti” davom ettiradi. “Evodiya” iyun oyi o‘rtalarida gulga kirib, bir oy davomida gullab turadi.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, daraxt shu qadar ko‘p gul beradiki, shiraga boy bu gullar atrofidan asalari

Kambag‘allikdan farovonlik sari

Bahor fasli Quva tumanida o‘zgacha tarovat bilan boshlanadi. Ketmon yelkalagan bobodehqon yangi hosil taraddudiga kirishgan. Yo‘l bo‘yida gul, mevali va manzarali daraxt ko‘chatlari savdosi avjida. Bu yerdagi deyarli har bir xonadon, mahallada sarxil daraxt ko‘chatlari yetishtirish borasida o‘ziga xos tajriba ommlalashgan. Endi anor, olma, behi, gilos, o‘rik bilan birga limon, banan, mandarin, apelsin, kivi singari mevali va manzarali daraxtlar ko‘chatini ham yetishtirish bo‘yicha sa‘y-harakatlar keng guloch yoymoqda.

KO‘CHAT YETISHTIRIB

BOY BO‘LAYOTGANLAR

xaridorlar tomorqamizdan, dala boshidan ulgurji olib ketyapti.

Sarxil nihol yetishtirib daromad topayotgan qoraqumliklar bandligi ta‘minlanib, ro‘yot‘origa qut-baraka kirmoqda. Hozir ishsiz, mehnat migratsiyasidan qaytgan 37 nafar yosh “Bir mahalla — bir mahsulot” tamoyili asosida ko‘chat yetishtiryapti. Mirodil Hoshimov ana shunday ishsiz yoshlardan edi. Bugun foydali mehnat bilan band. Bolalikdan mehnatda toblangan yigit 30 sotix yerda turfa gullar, mevali va manzarali daraxtlar ko‘chatini yetishtirish bilan shug‘ullanyapti. Joriy mavsumda 20 ming tup atirgul, 30 ming tupdan ortiq manzarali daraxt niholini yetishtirdi.

— Dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, mavsumda yuz million so‘mdan ortiq daromad olishni ko‘zlab turibmiz, — deydi bog‘bon. —

Har bir soha mehnat, e‘tibor talab qiladi, albatta. Ayniqsa, gul, mevali va manzarali daraxtlar ko‘chatini yetishtirish — katta mas‘uliyat. O‘zgina e‘tiborsizlik, loqaydlik tufayli yil bo‘yi hosil va daromaddan quruq qolishingiz mumkin. Nihollarni o‘z vaqtida o‘g‘itlash,

sug‘orish, begona o‘tlardan tozalash, tuproq umumdorligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda ekindan bo‘shagan maydonlarni peshma-pesh shudgorlab, mahalliy o‘g‘it bilan to‘yintirib, sabzavot yetishtiramiz. Bu almashlab ekish, gektarlar hosildorligini oshirish bilan birga qo‘shimcha daromad olish imkoniyatini beryapti.

Aytishlaricha, gul ko‘chatini yetishtirish nozik, mashaqqatli, lekin sardaromad ish. Har bir ko‘chatga turlicha ishlov beriladi, parvarishlanadi. Bu ishni yaxshi bilmagan kishi ko‘zlangan natijaga erisha olmaydi. Shu bois, sohaning o‘ziga xos, nozik jihatlarini puxta o‘zlashtirish juda muhim. Bunda tajribali tomorqachilar, bog‘bonlarning ishi tajribasi qo‘l kelmoqda. Mahallada yetishtirilgan ko‘chatlar nafaqat vodiylar viloyatlari, balki mamlakatimizning boshqa tuman va shaharlari, shuningdek, qo‘shni Qozog‘iston, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg‘iziston hamda Rossiya va Yevropa bozorlariga eksport qilinmoqda.

— Mahallamizda gulchilik va ko‘chatchilikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash

orqali oilalar daromadini oshirishga alohida e‘tibor qaratilyapti, — deydi “Qoraqum” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi Gavharoy Hoshimova. —

Hududimizda ishlab chiqarish korxonalari yo‘q. Lekin tomorqadan foydalanishda o‘ziga xos tajriba to‘plangan. Mahallaning o‘shish nuqtasi ko‘chatchilik, har bir xonadonda nihol yetishtiriladi. “Yashil makon” umummilliy loyihasining bahor va kuz mavsumida bu yerda har yili 3 million tupdan ortiq mevali va manzarali, 1 million tup atirgul ko‘chat yetkazib berilyapti. Bu yo‘nalishda “Qoraqum ko‘chatlari” kooperatsiyasi tashkil etilgan. U talab va ehtiyojga qarab sara ko‘chatlarni yetkazib berish, ko‘paytirish, sotish jarayonida aholiga yaqindan yordamlashmoqda.

Zamonaviy xonadon, ko‘cha va mahallalarda bo‘lgan kishi bu qadar o‘zgarib, o‘ziga xos me‘moriy yechim kasb etgan eski qishloqning yangi ko‘rinishiga hayrat va havas bilan boqadi. Tor, o‘nqir-cho‘nqir ko‘chalarga shag‘al yotqizilib, asfaltlandi, elektr, toza ichimlik va oqova suv tarmoqlari tortildi. Pastqama, paxsa devorli uylarni yangilash, sanitariya-gigiyena holatini yaxshilash ishlari keng guloch yozdi. Ikkitta qutqoz qazilib, xonadonlar toza ichimlik suv bilan ta‘minlandi. Mahalla fuqarolar yig‘ini binosi to‘liq qayta rekonstruksiya qilindi,

kerakli shart-sharoit yaratildi. Qishloq oilaviy poliklinikasi filiali uchun zamonaviy bino qurilib, foydalanishga topshirildi.

— Oilaviy tadbirkorlik, bog‘dorchilik va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini rivojlantirish orqali aholi bandligini ta‘minlash, farovonligini oshirish bugunning muhim ishlaridan, — deydi mahalladagi hokim yordamchisi Ahmadjon Qo‘qchorov. — O‘tgan yili bu yo‘nalishlarni qamrab olgan 42 ta istiqbolli loyiha uchun umumiy qiymati 1 milliard 200 million so‘mlik kredit ajratilib, yuzdan ortiq yangi ish o‘rmi ochildi. Joriy yilda esa sanoat, xizmat ko‘rsatish va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hamda qayta ishlash yo‘nalishlarida 10 ta yirik tadbirkorlik loyihasini ishga tushirish, tashabbuskorlarni qo‘llab-quvvatlash borasida takliflar ishlab chiqildi. Bu hududlarni yanada obod qilish, aholining kundalik hayot tarzi uchun munosib shart-sharoit yaratish imkonini beradi.

Qoraqum mahallasidagi qaysi xonadonga kirmang, turfa, bir-birdan go‘zal gul va manzarali daraxt ko‘chatlarini ko‘rib bahri dilingiz ochiladi, usta dehqonlar mehnati va izlanishlariga tasanno aytasiz.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Sherozod Qoraboyev olgan suratlardir.

